



**XORIJIY MAMLAKATLARDA KECHGAN QUROLLI MOJAROLAR
TAJRIBASI ASOSIDA SHAHAR SHAROITIDA JANGOVAR
HARAKATLAR OLIB BORISH TAKTIKASINING
QIYOSIY HARBIY TAHLILI**

*O'zbekiston Respublikasi Jamoat
xavfsizligi universiteti Magistratura
tinglovchisi M.N. Olimjonov*

Annotatsiya Maqolada shahar muhitida olib boriladigan jangovar harakatlarning zamonaviy xususiyatlari, xorijiy va MDH davlatlari tajribasi asosidagi taktik yondashuvlar tahlil qilingan. Shahar sharoitdagi urushlar aholi zichligi, infratuzilmaning cheklanganligi va manyovr imkoniyatlarining torligi bilan tavsiflanib, bu sharoit harbiy rejalashtirish, razvedka va boshqaruv tizimlariga yangi talablar qo'yadi. Tadqiqotda xorijiy mualliflar (Lapshov, Jizel, Lopes-Rodrigues, Montoya, Singer, Kilkallen va boshqalar) hamda MDH mutaxassislari (Posashkov, Sungatov, Zapariy, Lisisin) qarashlari qiyosiy tahlil qilingan. Natijada shahar muhitida robototexnika, dron-razvedka, kognitiv va axborot domenlarini uyg'unlashtirish taktik samaradorlikning asosiy omillari ekani aniqlandi. Ilmiy ish fuqarolar xavfsizligini ta'minlash va xalqaro gumanitar huquq talablariga rioya qilishning taktik jihatdan ahamiyatini ham yoritadi.

Kalit so'zlar: shahar sharoiti, shahar urushi, taktika, robototexnika, dron-razvedka, xalqaro gumanitar huquq, kognitiv domen.

АННОТАЦИЯ В статье рассмотрены современные особенности ведения боевых действий в городской среде и проанализированы тактические подходы на основе опыта зарубежных и стран СНГ. Урбанизированная территория характеризуется высокой плотностью населения, ограниченностью инфраструктуры и узкими возможностями для манёвра, что



предъявляет новые требования к планированию операций, разведке и системам управления. Проведён сравнительный анализ взглядов зарубежных исследователей (Лапшов, Жизель, Лопес-Родригес, Монтоя, Сингер, Килкаллен и др.) и специалистов СНГ (Посашков, Сунгатов, Запарий, Лисицын). Установлено, что сочетание робототехники, дрон-разведки, когнитивных и информационных инструментов повышает эффективность действий в городской среде. Отдельное внимание уделено вопросам защиты гражданского населения и соблюдения норм международного гуманитарного права.

Ключевые слова: городская среда, урбанизированная война, тактика, робототехника, разведка, гуманитарное право, информационные технологии.

ABSTRACT The article examines the modern features of conducting combat operations in urban environments and analyzes tactical approaches based on the experiences of foreign and CIS military practices. Urban warfare is characterized by high population density, limited infrastructure, and restricted maneuverability, creating new demands for operational planning, reconnaissance, and command systems. The comparative analysis includes studies by foreign researchers (Lapshov, Gisel, Lopez-Rodriguez, Montoya, Singer, Kilcullen, among others) and CIS experts (Posashkov, Sungatov, Zapary, Lisitsyn). The research concludes that integrating robotics, drone reconnaissance, and cognitive–informational domains is crucial for tactical effectiveness in urban warfare. The paper also highlights the importance of protecting civilians and adhering to international humanitarian law during urban combat operations.

Keywords: urban environment, urban warfare, tactics, robotics, drone reconnaissance, humanitarian law, cognitive warfare.

Shahar sharoitdagi jangovar harakatlar zamonaviy harbiy amaliyotning eng murakkab yoʻnalishlaridan biri boʻlib, u nafaqat harbiy, balki siyosiy, ijtimoiy va gumanitar jihatdan ham katta ahamiyat kasb etadi. Shaxarlarni rivojlanish



jarayonlarining tez sur'atlarda o'sishi natijasida shaharlar nafaqat iqtisodiy va madaniy markazlar, balki ehtimoliy harbiy to'qnashuv nuqtalariga ham aylanmoqda.

So'nggi o'n yilliklarda Suriya, Iroq, Ukraina, Yaman, hamda Qorabog' kabi hududlarda kechgan mojarolar shahar sharoitida urush olib borishning an'anaviy doktrinal qoidalarini tubdan o'zgartirdi. Bunday sharoitda aholi zichligi, ko'p qavatli binolar, kommunikatsiyalar va tor manyovr maydonlari harbiy operatsiyalarning samaradorligiga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir ko'rsatadi.

Shahar muhitida urush olib borish nafaqat qurol va texnika, balki axborot, psixologiya, kognitiv boshqaruv hamda xalqaro huquq normalari bilan uzviy bog'liq holda kechadi. Shu bois, xorijiy va MDH mamlakatlari tajribasini tahlil qilish orqali shahar muhitidagi jangovar harakatlarning ilmiy-nazariy va amaliy jihatlarini chuqur o'rganish dolzarb hisoblanadi.

Tadqiqotning asosiy maqsadi – xorijiy mamlakatlarda olib borilgan qurolli to'qnashuvlar misolida shahar muhitida jangovar harakatlar taktikasidagi samarali yondashuvlar va muammolarni aniqlab, kelgusida harbiy amaliyotlarda qo'llanilishi mumkin bo'lgan ilmiy takliflarni ishlab chiqishdan iborat.

Zamonaviy harbiy amaliyotda shahar muhitida jang olib borish masalasi jahon harbiy ilmida eng dolzarb mavzulardan biriga aylandi. Urbanizatsiya darajasining ortishi, aholi zichligining yuqoriligi, transport va kommunikatsiya tarmoqlarining cheklanganligi natijasida shaharlar strategik nuqtai nazardan nafaqat siyosiy va iqtisodiy markaz, balki harbiy ahamiyatga ega hudud sifatida ko'rila boshladi¹.

Shahar muhitidagi jangovar harakatlar (shahar urushlar) o'zining ko'p qirraliligi, murakkab infratuzilma tizimi va aholi bilan chambarchas bog'liqligi bilan ajralib turadi. V.S. Lapshov va hammualliflar ta'kidlaganidek, shahar sharoitida jang maydonining "to'siqli va tor manyovr fazosi" harbiy qo'mondonlikni sezilarli

¹ Kilcullen D. Out of the Mountains: The Coming Age of the Urban Guerrilla. Oxford University Press, 2020.



darajada qiyinlashtiradi, an'anaviy artilleriya va aviatsiya usullarining samaradorligini pasaytiradi².

Mualliflar fikricha, shahar muhitidagi janglarda asosiy afzallik insonning xavfsizligini ta'minlaydigan va tezkor ma'lumotni qayta ishlaydigan robotlashtirilgan komplekslardan foydalanishda namoyon bo'ladi³. Ularning tahlillariga ko'ra, razvedka, ta'minot, evakuatsiya va muhandislik vazifalari uchun maxsus RTK (robototexnikaviy komplekslar) tizimlarini joriy etish nafaqat inson yo'qotishlarini kamaytiradi, balki qaror qabul qilishni tezlashtiradi va jang samaradorligini oshiradi⁴.

Xalqaro gumanitar huquq nuqtai nazaridan qaralganda, shahar muhitida urush olib borish jarayoni faqat harbiy maqsadlarni ko'zlamay, balki aholining xavfsizligini ta'minlash majburiyatini ham o'z ichiga oladi. Loran Jizel va hammualliflar ta'kidlaganidek, shahar urushlarda fuqarolar va harbiy ob'ektlar chambarchas joylashganligi sababli "farqlash" (distinction) va "mutanosiblik" (proportionality) tamoyillariga to'liq rioya qilish juda qiyin⁵. Mualliflar Suriya va Iroqdagi janglarning gumanitar oqibatlarini tahlil qilar ekan, keng ta'sir doirasiga ega portlovchi qurollardan foydalanish fuqarolarga katta zarar yetkazishini ta'kidlaydilar. Shu bois, ular aholi yashaydigan hududlarda bunday qurollarni ishlatishni cheklash zarurligini ilgari suradilar⁶.

Gilermo Lopes-Rodrigues va Daniel Montoya-Roldan shahar muhitidagi jangovar harakatlarni "to'rt o'lchovli tizim" sifatida tavsiflaydilar: harbiy tashkilotning ichki tuzilishi, texnologiyalar, axborot boshqaruvi va mahalliy aholi bilan munosabatlar⁷. Ularning fikricha, zamonaviy armiyalar uchun

² Лапшов В.С. ва бошқ. Бой в городе. Боевые и обеспечивающие роботы в условиях шаҳаризированной территории. – Известия ЮФУ, 2022.

³ Лапшов В.С. ва бошқ. Бой в городе. Боевые и обеспечивающие роботы в условиях шаҳаризированной территории. – Известия ЮФУ, 2022.

⁴ Singer P. W. *Wired for War: The Robotics Revolution and Conflict in the 21st Century*. Penguin Books, 2019

⁵ Gisela L., Gimeno P., Hume K., Zeith A. Urban warfare: an age-old problem in need of new solutions. ICRC, 2021.

⁶ Gisela L., Gimeno P., Hume K., Zeith A. Urban warfare: an age-old problem in need of new solutions. ICRC, 2021.

⁷ López-Rodríguez G., Montoya-Roldan D. Challenges and Prospects in Urban Warfare: An Analytical Framework. 2024.



detsentralizatsiyalashgan boshqaruv tizimi va kognitiv boshqaruv (cognitive command) usullari strategik ustunlik yaratib, qo'mondonlikning tezkorligini ta'minlaydi.

Mualliflar Suriya va Ukrainadagi mojarolarni tahlil qilar ekan, harbiy kuchlar nafaqat qurol, balki axborot va jamoatchilik fikri orqali ham ta'sir o'tkazishi kerakligini ta'kidlaydilar. Ular "harbiy g'alaba endi faqat fizik maydonda emas, balki kognitiv va axborot maydonida ham qo'lga kiritiladi", deb xulosa chiqaradi⁷.

Piter V. Singer o'zining "Wired for War" asarida robototexnika va avtonom tizimlar jang maydonidagi inson qurbonlarini kamaytirishda muhim ahamiyatga ega ekanini ta'kidlaydi⁸. Shu bilan birga, u shunday texnologiyalar inson nazoratidan chiqib ketishi yoki noto'g'ri qaror qabul qilishi ehtimoli borligini, bu esa gumanitar falokatga sabab bo'lishi mumkinligini ta'kidlab, harbiy sohada inson tasdig'ini talab qiluvchi qaror tizimini saqlab qolish zarurligini ilgari suradi.

Devid Kilkallen esa shahar muhitini faqat harbiy jang maydoni emas, balki ijtimoiy-iqtisodiy va axborot makoni sifatida baholaydi. Uning fikricha, shahar muhitida muvaffaqiyat faqat qurol yoki texnika bilan emas, balki mahalliy aholi bilan ishlash, jamoatchilikni jalb etish va axborot oqimini nazorat qilish orqali ta'minlanadi⁹.

MDH davlatlari mutaxassislari ham ushbu yo'nalishda muhim nazariy xulosalar chiqarganlar. Ye.V. Posashkov shahar muhitida harakat qiladigan bo'linmalar uchun "uch bosqichli taktika" — razvedka, manyovr va hududni tozalash —ni ilgari suradi. U jang davomida kichik, mustaqil harakat qiladigan guruhlar samaraliroq ishlashini asoslab beradi¹⁰. Belarus mutaxassisi S.Yu. Sungatov esa shahar muhitni "qisilgan manyovr makoni" sifatida baholab, qatlamli

⁸ Singer P. W. Wired for War, 2019

⁹ Kilcullen D. Out of the Mountains, 2020

¹⁰ Posashkov Ye.V. Тактика действий подразделений в условиях городской застройки. Москва, 2021.



himoya, injenerlik ta'minoti va psixologik tayyorgarlikni kuchaytirishni tavsiya qiladi¹¹.

Rossiyalik tadqiqotchilar A.P. Zapariy va I.V. Lisisin Suriya va Donbassdagi janglar tajribasini tahlil qilar ekan, yer osti kommunikatsiyalaridan foydalanish, qamal taktikasi va dron-razvedkaning ahamiyatini ta'kidlaydilar. Ularcha, shahar muhitda himoyalalanuvchi tomon binolar va infratuzilmani foydaga aylantira oladi, hujumchi esa faqat tezkor manyovr va yuqori aniqlik orqali ustunlikka erishadi.¹²

Shu tariqa, xorijiy va mintaqaviy tahlillar shahar muhitidagi urushlarning yangi bosqichga ko'tarilganini ko'rsatadi. Bugungi sharoitda g'alaba qurol kuchi bilan emas, balki axborot, texnologiya va inson omillarining uyg'un qo'llanilishi orqali ta'minlanadi.

So'ngi vaqtlarda olib borilayotgan qurolli mojarolar tajribasi shahar muhitida urush olib borishning an'anaviy nazariyalariga katta ta'sir ko'rsatdi. Jumladan, XXI asr boshidan buyon Iroq, Suriya, Afg'oniston, Ukraina va Yaman kabi hududlardagi mojarolar harbiy amaliyotlar uchun yangi real shart-sharoitlar yaratib berdi¹³. Ushbu tajribalar shahar muhitidagi urushlarning asosiy xususiyatlarini va yangi taktik yo'nalishlarni belgilab berdi.

Suriya mojarosi shahar urushlarning zamonaviy shakllarini yaqqol namoyon etdi. Halab, Raqqa, Homs va Damashq kabi shaharlarda janglar ko'p qavatli binolarda, tor ko'chalarda va aholi zich joylashgan hududlarda kechgan. Bu holatda artilleriya va aviatsiyaning samaradorligi keskin pasaydi, chunki ularning ta'siri fuqarolarga ham salbiy oqibatlar yetkazardi¹⁴. Loran Jizel va hammualliflar fikricha, shahar muhitida keng ta'sir doirasiga ega qurollardan foydalanish xalqaro gumanitar

¹¹ Sungatov S.Yu. Тактика ведения боя в условиях плотной городской застройки. Минск, 2020.

¹² Zapariy A.P., Lisisyn I.V. Опыт ведения боевых действий в шахаризированной местности (на примере Сирии и Донбасса). Екатеринбург, 2019.

¹³ Kilcullen D. Out of the Mountains: The Coming Age of the Urban Guerrilla. Oxford University Press, 2020.

¹⁴ Gisel L., Gimeno P., Hume K., Zeith A. Urban warfare: an age-old problem in need of new solutions. ICRC, 2021.



huquq normalariga zid keladi¹⁵. Ular Suriyadagi amaliyotlarni tahlil qilar ekan, fuqarolarni himoya qilish va evakuatsiya yo‘llarini ta‘minlashni harbiy rejalashtirishning ajralmas qismiga aylantirish zarurligini ta‘kidlaydilar¹⁶.

Shu bilan birga, Rossiya Federatsiyasi Suriyada amalga oshirgan operatsiyalar tajribasi asosida “rekognossirovka-udar kompleksi” tizimini ishlab chiqqan bo‘lib, u razvedka ma‘lumotlarini real vaqtda qayta ishlash va zarbani aniqlashni ta‘minlagan¹⁷. V.S. Lapshov va hammualliflar bu tajribada robototexnikaviy tizimlardan foydalanish inson qurbonlarini kamaytirganini va operatsiya tezligini oshirganini qayd etadilar¹⁸.

Shuningdek, Suriyadagi jangovar harakatlar dron-razvedka vositalarining rolini tubdan oshirdi. Ular dushman pozitsiyalarini aniqlash, binolar orasida harakatni nazorat qilish va manyovr yo‘nalishini tanlashda hal qiluvchi ahamiyat kasb etdi¹⁹. Rossiya va Eron tomonidan qo‘llangan “Orlan”, “Moxadjir” va “Shaxid” turkumidagi dronlar taktik razvedka va artilleriyani muvofiqlashtirishda foyda berganini ko‘rsatdi²⁰.

2016 – 2017 yillardagi Mosul operatsiyasi shahar muhitidagi janglarning katta ko‘lamli namunasi bo‘ldi. Iroq qurolli kuchlari va xalqaro koalitsiya tomonidan ISHID guruhiga qarshi olib borilgan operatsiyalar davomida harbiylar ko‘p marta binolarga suyangan dushmanni tozalash va fuqarolarni himoya qilish muammosiga duch keldilar²¹.

Mutaxassislarning fikricha, Mosul amaliyoti “chiziqsiz front” modeli bo‘lib, harbiylar jangni ko‘cha bo‘ylab, xonadan xonaga harakatlanish orqali olib borgan²².

¹⁵ Ibid

¹⁶ Ibid

¹⁷ Marshall Center Report. Russian Lessons from the Syrian Operation. 2022.

¹⁸ Lapshov V.S. va boshq. Бой в городе. Известия ЮФУ, 2022.

¹⁹ López-Rodríguez G., Montoya-Roldan D. Challenges and Prospects in Urban Warfare. 2024.

²⁰ Same source

²¹ International Review of the Red Cross. Mosul: The Humanitarian Dimension of Urban Warfare. 2018.

²² Kilcullen D. Out of the Mountains. 2020



Bu jarayonda detsentralizatsiyalashgan boshqaruv va kichik taktik guruhlar asosiy rolni o'ynagan. Lopes-Rodrigues va Montoya ta'kidlaganidek, shunday modelda tezkor qaror qabul qilish uchun zamonaviy axborot platformalari va sensor ma'lumotlarini integratsiyalash muhim ahamiyat kasb etadi²³.

Shu bilan birga, Mosul tajribasi jangchi kuchlar uchun inson resursini tejashda avtomatlashtirilgan razvedka tizimlari (*dronlar va nazorat kameralari*)ning o'zni qanchalik katta ekanini ko'rsatdi. AQSh va Iroq qo'shinlari tomonidan foydalanilgan "ScanEagle" va "Shadow" kabi dronlar mahalliy aholi harakatini kuzatish, terrorchilarni aniqlash va binolar ostidagi tunnel tizimlarini xaritalash uchun qo'llanildi²⁴.

Ukrainadagi mojaro (*ayniqsa 2022 yildan keyingi bosqichda*) shahar muhitidagi jangovar harakatlar eng yuqori darajada mexanizatsiyalashgan urushlarga aylandi. Donesk, Mariupol, Baxmut va Severyansk kabi shaharlarda har ikki tomon dronlar, sensorlar, avtomatlashgan artilleriya tizimlari va piyoda robotlardan foydalanmoqda²⁵.

A.P. Zapariy va I.V. Lisisin ushbu tajribani tahlil qilar ekan, shahar muhitida "qamal taktikasi" va "qatlamli mudofaa tizimi" samarali ekanini ko'rsatdilar²⁶. Uning fikricha, himoyalannuvchi tomon binolarni tabiiy qalqon sifatida foydalanib, dron orqali razvedka va artilleriya zarbalarini muvofiqlashtirish orqali ustunlikka erishishi mumkin.

Bu tajribada Rossiya va Ukraina tomonlari tarafidan avtonom qurol tizimlari (*ayniqsa FPV dronlar*)dan foydalanish keng tarqaldi. Bu dronlar kichik narx va

²³ López-Rodríguez G., Montoya-Roldan D. Challenges and Prospects in Urban Warfare. 2024.

²⁴ U.S. Department of Defense Reports, 2017.

²⁵ Bin Inam Z., Rauf S. Understanding Urban Warfare and its manifestation in the Russia-Ukraine War. ISSI, 2024.

²⁶ Zapariy A.P., Lisisyn I.V. Опыт ведения боевых действий в шаҳаризированной местности (на примере Сирии и Донбасса). Yekaterinburg, 2019.



yuqori manyov'r qobiliyati bilan shahar muhitidagi tezkor hujumlar uchun samarali bo'ldi²⁷.

Shu bilan birga, shahar muhitdagi urushlarda axborot kurashi ham muhim ahamiyat kasb etdi. Lopes-Rodriges va Montoya ta'kidlaganidek, "hozirgi urush faqat qurol bilan emas, balki ma'lumotni kim tezroq yig'adi va qayta ishlay oladi – o'sha g'olib bo'ladi"²⁸.

Xorijiy amaliyotlar tahlilidan ko'rinib turibdiki, shahar muhitdagi urushlar murakkab tizimli tabiatga ega. Ular nafaqat fizik to'qnashuv, balki axborot, kognitiv va texnologiyaviy kurashlarni ham qamrab oladi. Shahar muhitda muvaffaqiyatga erishish uchun quyidagi taktik omillar muhim deb hisoblanadi:

- kichik manyovrchan bo'linmalar va detsentralizatsiyalashgan boshqaruv tizimlari;
- dron-razvedka va robototexnika vositalari integratsiyasi;
- fuqarolar xavfsizligini ta'minlashga yo'naltirilgan gumanitar rejalashtirish;
- axborot va kognitiv kurashni strategik operatsiya bilan uyg'unlashtirish.

Bu tajribalar shuni ko'rsatadiki, shahar muhitdagi jangovar harakatlarning kelajagi qurol bilan emas, aqlli axborot, texnologiya va inson omilining uyg'unligi bilan belgilanadi.

MDH davlatlari, xususan Rossiya Federatsiyasi, Belarus va Qozog'iston harbiy tahlil markazlari shahar muhitida jangovar harakatlar o'tkazish tajribasini ilmiy jihatdan chuqur o'rganib kelmoqda. Ular Suriya, Donbass va Qorabog' mojarolaridagi amaliyotlardan olingan natijalar asosida shahar muhitida jang olib borishning ilmiy-nazariy modellarini ishlab chiqdilar²⁹.

²⁷ Finabel Analysis Report. Urban Warfare and Use of FPV Drones in Ukraine. 2023.

²⁸ López-Rodríguez G., Montoya-Roldan D. Challenges and Prospects in Urban Warfare. 2024.

²⁹ Lapshov V.S. va boshq. Бой в городе. Известия ЮФУ, 2022.



Shahar sharoitidagi urush MDH harbiy doktrinalarida murakkab ko'p qatlamli muhitda harakat qilish taktikasi sifatida ta'riflanadi. Bu muhitda jangchilar nafaqat fizik jihatdan, balki axborot, kiber va kognitiv maydonda ham harakat qilish qobiliyatiga ega bo'lishi lozim³⁰.

Rossiya Federatsiyasi Suriya va Ukrainadagi amaliyotlardan so'ng shahar muhitida jang olib borishning yangi modelini shakllantirdi. Ye.V. Posashkovning "Тактика действий подразделений в условиях городской застройки" nomli ishida qayd etilishicha, shahar muhitida manyovr imkoniyatlarining cheklanganligi va ko'p tomonlama xavf manbalari sababli jangchi bo'linmalar kichik, tezkor va avtonom guruhlariga bo'linishi kerak³¹.

Muallif "uch bosqichli taktika"ni ilgari suradi:

razvedka va hududni o'rganish,
chegaralangan hujum yoki himoya manyovri,
nazorat va tozalash bosqichi.

Bu model amaliyotda Suriya va Donbass sharoitida o'zini oqlagan. Posashkovning fikricha, har bir guruh mustaqil qaror qabul qilish va razvedka ma'lumotlariga tayana olgan holda harakat qilish qobiliyatiga ega bo'lishi lozim. Bu "detsentralizatsiyalangan boshqaruv tizimi"ning samaradorligini isbotlaydi³².

V.S. Lapshov va uning hammualliflari "Бой в городе. Боевые и обеспечивающие работы в условиях урбанизированной территории" nomli ishida Rossiyaning Suriyadagi tajribasini tahlil qilib, robototexnikaviy komplekslardan (RTK) foydalanish samaradorligini isbotlaydilar³³. Ularning

³⁰ Posashkov Ye.V. Тактика действий подразделений в условиях городской застройки. Москва, 2021.

³¹ Ibid.

³² Ibid.

³³ Lapshov V.S., Noskov V.P., Rudianov N.A. Боевые и обеспечивающие работы в условиях урбанизированной территории. 2022.



fikricha, shahar muhitida insonning faol ishtirokini kamaytirish, tezkor razvedka va qurolni aniq yoʻnaltirish vazifalarini robotlar bajarishi mumkin.

Mualliflar RTKlarni quyidagi yoʻnalishlarda tasniflaydilar:

razvedka-kuzatuv robotlari,
ognevoy qoʻllab-quvvatlash robotlari,
taʼminot va logistika robotlari,
evakuatsiya va muhandislik robotlari.

Bu tizimlar taktik qaror qabul qilishda komandirga real vaqtda maʼlumot yetkazadi hamda qurbonlar sonini sezilarli darajada kamaytiradi³⁴.

Shuningdek, Rossiya tadqiqotchilari shahar muhitida jang olib borishda 3D modellashtirish va sunʼiy intellekt texnologiyalarini joriy etish zarurligini taʼkidlaydilar. Bu vositalar jang maydonining raqamli tasviri orqali taktik rejalashtirishni tezlashtiradi, xavfni baholash va oʻq otish aniqligini oshiradi³⁵.

Belarus harbiy tahlilchisi S.Yu. Sungatov oʻzining “Тактика ведения боя в условиях плотной городской застройки” asarida shahar muhitini “qisilgan manyovr makoni” sifatida taʼriflaydi. Uning fikricha, shahar muhitida jangchi boʻlinmalar koʻpincha dushmanni vizual koʻra olmaydi, shu bois axborot, sensor va dron yordamida manyovr qilish taktikasi muhim ahamiyatga ega³⁶.

Sungatov “qatlamli himoya” tamoyilini ilgari suradi: binolarning har bir qavati mudofaa nuqtasi sifatida qurilishi kerak, har bir boʻlinma orqasida qoʻshimcha himoya qatlami boʻlishi lozim. Bu taktika Donbass amaliyotida samarali boʻlgan va dushmanning tez ilgarilashini cheklagan³⁷.

Muallif, shuningdek, shahar muhitidagi jangchi kuchlar uchun psixologik tayyorgarlik va yordam vositalarining ahamiyatini alohida taʼkidlaydi. Uning

³⁴ Ibid.

³⁵ Kilcullen D. Out of the Mountains. Oxford, 2020.

³⁶ Sungatov S.Yu. Тактика ведения боя в условиях плотной городской застройки. Минск, 2020.

³⁷ Ibid.



fikricha, ko‘p hollarda shahar janglarida qo‘rquv, stress va ko‘zga ko‘rinmas xavflar jangchilarning samaradorligiga ta’sir ko‘rsatadi³⁸.

A.P. Zapariy va I.V. Lisisin “Опыт ведения боевых действий в урбанизированной местности (на примере Сирии и Донбасса)” asarida Donbass va Suriyadagi jangovar harakatlar o‘rtasidagi umumiy qonuniyatlarni tahlil qiladilar³⁹. Ular fikricha, shahar muhitida jangchi kuchlar uchun yer osti kommunikatsiyalari va binolar tizimi hal qiluvchi ahamiyatga ega. Shu boisdan, himoyalalanuvchi tomon yer osti tunnellari va yuqori binolarni taktik nuqta sifatida qo‘llashi zarur.

Mualliflar, shuningdek, “qamal taktikasi”ni shahar muhitdagi eng samarali usullardan biri sifatida baholaydilar. Bu usul dushmanni ma’lum hududda to’sib qo‘yib, uni oziq-ovqat va askar ta’minotidan uzish orqali zaiflashtirish imkonini beradi⁴⁰.

Qorabog‘ mojarosida esa, Azerbayjon armiyasi tomonidan qo‘llanilgan turli turdagi uchuvchisiz vositalar — “Bayraktar TB2” va “Harop” kabi dronlar — shahar muhitida aniq zarbalar berish va dushman pozitsiyalarini yo‘q qilishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etdi⁴¹. Bu tajriba MDH davlatlarida shahar muhitdagi jang uchun dron tizimlarini integratsiya qilish zarurligini yana bir bor tasdiqladi.

Yuqoridagi tajribalar asosida quyidagi umumiy taktik xulosalar shakllanadi:

Shahar muhitida katta bo‘linmalar emas, balki kichik, tezkor va mustaqil guruhlar ustunlikka ega;

Dronlar va robotlashtirilgan tizimlar inson qurbonlarini kamaytiradi va razvedka samaradorligini oshiradi;

³⁸ Ibid.

³⁹ Zapariy A.P., Lisisin I.V. Опыт ведения боевых действий в урбанизированной местности (на примере Сирии и Донбасса). Екатеринбург, 2019.

⁴⁰ Ibid

⁴¹ Finabel Report. Drone Warfare in Nagorno-Karabakh. 2022.



Qatlamli himoya va yer osti kommunikatsiyalaridan foydalanish himoyalanuvchi tomon uchun afzallik yaratadi;

Axborot va kognitiv boshqaruvni kuchaytirish, ya'ni jangni nafaqat qurol bilan, balki axborot va psixologiya vositalari orqali olib borish zarur;

Harbiy doktrinalarda fuqarolar xavfsizligi va gumanitar huquq talablari asosiy tamoyil sifatida belgilanishi kerak.

Shu tariqa, olimlar qarashlari va tajribalar shahar muhitidagi urushlarning kelajagi avtomatlashtirish, kognitiv ustunlik va inson resursini himoya qilish bilan chambarchas bog'liq ekanini ko'rsatmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Kilcullen D. Out of the Mountains: The Coming Age of the Urban Guerrilla. Oxford University Press, 2020.
2. Lapshov V.S. va boshq. Бой в городе. Боевые и обеспечивающие работы в условиях ша­ха­ри­зи­ро­ван­ной тер­ри­то­рии. – Известия ЮФУ, 2022.
3. Ibid.
4. Singer P. W. Wired for War: The Robotics Revolution and Conflict in the 21st Century. Penguin Books, 2019.
5. Gisel L., Gimeno P., Hume K., Zeith A. Urban warfare: an age-old problem in need of new solutions. ICRC, 2021.
6. Ibid.
7. López-Rodríguez G., Montoya-Roldan D. Challenges and Prospects in Urban Warfare: An Analytical Framework. 2024.
8. Singer P. W. Wired for War, 2019.
9. Kilcullen D. Out of the Mountains, 2020.
10. Posashkov Ye.V. Тактика действий подразделений в условиях городской застройки. Москва, 2021.



11. Sungatov S.Yu. Тактика ведения боя в условиях плотной городской застройки. Минск, 2020.
12. Zariy A.P., Lisisyn I.V. Опыт ведения боевых действий в шахаризированной местности (на примере Сирии и Донбасса). Екатеринбург, 2019.
13. Kilcullen D. Out of the Mountains: The Coming Age of the Urban Guerrilla. Oxford University Press, 2020.
14. Gisel L., Gimeno P., Hume K., Zeith A. Urban warfare: an age-old problem in need of new solutions. ICRC, 2021.
15. Ibid.
16. Ibid.
17. Marshall Center Report. Russian Lessons from the Syrian Operation. 2022.
18. Lapshov V.S. va boshq. Бой в городе. Известия ЮФУ, 2022.
19. López-Rodríguez G., Montoya-Roldan D. Challenges and Prospects in Urban Warfare. 2024.
20. Same source.
21. International Review of the Red Cross. Mosul: The Humanitarian Dimension of Urban Warfare. 2018.
22. Kilcullen D. Out of the Mountains. 2020.
23. López-Rodríguez G., Montoya-Roldan D. Challenges and Prospects in Urban Warfare. 2024.
24. U.S. Department of Defense Reports, 2017.
25. Bin Inam Z., Rauf S. Understanding Urban Warfare and its manifestation in the Russia-Ukraine War. ISSI, 2024.
26. Zariy A.P., Lisisyn I.V. Опыт ведения боевых действий в шахаризированной местности (на примере Сирии и Донбасса). Yekaterinburg, 2019.



27. Finabel Analysis Report. Urban Warfare and Use of FPV Drones in Ukraine. 2023.
28. López-Rodríguez G., Montoya-Roldan D. Challenges and Prospects in Urban Warfare. 2024.
29. Lapshov V.S. va boshq. Бой в городе. Известия ЮФУ, 2022.
30. Posashkov Ye.V. Тактика действий подразделений в условиях городской застройки. Москва, 2021.
31. Ibid.
32. Ibid.
33. Lapshov V.S., Noskov V.P., Rudianov N.A. Боевые и обеспечивающие роботы в условиях урбанизированной территории. 2022.
34. Ibid.
35. Kilcullen D. Out of the Mountains. Oxford, 2020.
36. Sungatov S.Yu. Тактика ведения боя в условиях плотной городской застройки. Минск, 2020.
37. Ibid.
38. Ibid.
39. Zapariy A.P., Lisisyn I.V. Опыт ведения боевых действий в урбанизированной местности (на примере Сирии и Донбасса). Екатеринбург, 2019.
40. Ibid.
41. Finabel Report. Drone Warfare in Nagorno-Karabakh. 2022.